

ODIL YOQUBOVNING “OQ QUSHLAR OPPOQ QUSHLAR” ASARIDA ARXAIK VA TARIXIY SO'ZLAR

Imomova Ozoda Shuhrat qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
phonesdayigirmauch@gmail.com

Qurbonova Gulnora Nuriddinovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
gulnoraq929@gmail.com

Sattorova Shodiya Jumaqul qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
sattorova7171@gmail.com

ANNOTATSIYA

Odil Yoqubovning “Oq qushlar oppoq qushlar” asaridagi arxaik va tarixiy so'zlarni aniqlash va tahlil qilish.

Kalit so'zlar: Istorizmlar, arxaik so'zlar, yangi so'zlar, leksemalar, tarixiy asarlar.

O'zbek tili o'zining purmanoga egaligi, tarixiy so'zlarga boyligi bilan ajralib turadi. O'zbek tili davrlar o'tishi jarayonida yangi so'zlarga boyib, hamda eski so'zlarning o'rnini boshqa yangi so'zlar egallay boshladi. O'zbek tilida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega bo'lgan so'zlardan tarixiy va arxaik leksemalarga to'xtalib o'tsak.

Tarixiy so'zlarning ikkinchi nomi istorizmlar deb nomlanadi. Istorizmlar bu o'tmishga oid narsa, hodisalarni ifodalagan, biroq hozirgi tilimizda o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlardir. Jumladan; paqir, miri (pul birliklari), qozi, qushbegi, yasovul, xalifa(mansab nomlari), omoch, yorg'ichoq, charx va shu kabi ko'plab so'zlarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

Arxaik so'zlar bu eskirgan so'zlardir. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan narsa va hodisalarning eskirib qolgan nomlaridir. Eskirgan so'zlarning hozirgi tilda sinonimi mavjud bo'ladi. Masalan; budun, ulus, raiyat-xalq; handasa-geometriya; muarrix-



tarixchi; dudoq-lab; lang-cho'loq; oqsoq va boshqa bir nechta so'zlarni sanab o'tishimiz mumkin.

Arxaizmlar va istorizmlar badiiy adabiyotda mamlakatdagi tarixiy vaziyatni qayta tiklash, rus xalqining milliy va madaniy an'analarini yetkazish uchun ishlatiladi. Bu ikki leksema tilimizda o'tmish va hozirgi zamon tili o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Til istorizm, arxaizmlar va yangi so'zlar bilan boyib, sayqallanib boraveradi. Tarixiy va arxaik so'zlarni tarixiy asarlarda, davr charxpalagidan o'tgan badiiy asarlarda uchratishimiz mumkin. Shunday asarlardan Odil Yoqubovning "Oq qushlar oppoq qushlar" asaridagi istorizmlar va arxaizm leksemalarini ko'rib chiqamiz. Asarda quyidagi so'zlar bisyor. Masalan;

Savxoz

Front

Brigadir

Brigada

Padar

Duxoba kamzul

Bo'yra

Jom

Xurjun

Xumcha

Qo'rg'on

Peshtoq

Karvonsaroy

Xujra

Bu so'zlarni mazmuniga to'xtalib o'tsak.

Savxoz-sovet xo'jaligi-sobiq SSSR da qishloq xo'jaligida tashkil etilgan yirik davlat xo'jaligi. 1918-yildan boshlab tuzilgan. O'zbekistonda dastlabki sovxozlar paxtachilik bo'yicha 1921-yildan tashkil etila boshlagan. Sovxozlar 1994-1995-yillarda tugatilib, jamoa, so'ngra shirkat xo'jaliklariga aylantirildi.



Ta'rifga e'tibor beradigan bo'lsak, bu leksema tarixiy ya'ni istorizm so'z hisoblanadi. Chunki savxoz atamasi SSSR davrida qo'llangan. Hozir iste'molda emas, shuning uchun ham tarixiy so'zlarga olamiz.

Ikkinchi so'zimiz front va frontchi leksemalaridir.

Front-odatda urush boshlanishi bilan qurolli kuchlar barpo etadigan operativ strategik birlashma, harbiy harakatlar maydonidagi qo'shinlar old bo'linmalarining yoyilish va dushman bilan to'qnashuv chizig'i, safning harbiy xizmatchilar yuzlangan tomoni. Urush yillarida keng qo'llangan termin bo'lib, urushga ketganlarni frontda deb atashib, u yerda xizmat qilganlarni frontchi deb nomlashgan. Bu leksemalar ham istorizmlardir. Hozirda bu so'zlardan foydalanilmaydi.

Brigadir-brigada boshlig'i. Ishlab chiqarish, dalachilik brigadasining boshlig'i. Bu so'z xalq orasida qisman bo'lsa ham qo'llanadi va mana shu leksema o'rnini boshqa so'zlar egallagan. Jumladan, fermer xo'jaligidagi rais, boshliq kabi so'zlar bilan o'rin almashgan. Shuning uchun ham brigadir arxaik so'zdir.

Brigada-barcha turdagi qurolli kuchlar, qo'shin turlari va maxsus qo'shinlar bo'linmalarining taktik birlashmasi; turli mamlakatlarda XVI asrning 2-yarmidan Rossiyada XVIII asr boshidan mavjud. Quruqlikdagi qo'shinlarda brigada odatda bir necha batalon (divizion) va maxsus qo'shinlar bo'linmalaridan iborat bo'ladi. Alohida ishlar majmuasini birgalikda bajaruvchi kishilar guruhi. Biron ishni bajaruvchi ishchilar guruhi hozirda mavjud. Shuning uchun brigada so'zi ham arxaik so'zdir.

Padar-so'zi tojik tilidan olingan bo'lib, ota degan ma'noni anglatadi. O'tmishda tarixiy asarlarda ko'p qo'llangan. Hozirda bu so'z o'rniga ota leksemasi qo'llanmoqda. Padar so'zini arxaik so'zga olishimiz mumkin.¹

Duxoba kamzul-xotin-qizlarning jelatkaga o'xshash kalta, odatda yengsiz, yoqasiz ust kiymi. Hozirgi nimchaga to'g'ri keladi. Bu so'z ham eskirgan so'zdir. Chunki oldingi kamzul o'rniga nimcha so'zi qo'llanmoqda.

Bo'yra-qamishdan to'qilgan to'shama ma'nosini anglatadi. Tozalangan qamish cho'pidan to'qilgan to'shamadir. Hozirgi davrga kelib zamonaviy gilamlar hayotimizga kirib kelganligi sababli, bo'yralarga ehtiyoj qolmadi. Shuning uchun bu so'z siqib chiqarildi. Bu leksemani tarixiy so'zga olamiz.

¹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining imlo lug'ati-Toshkent. 2011.



Jom-uy-ro'zg'or buyumi, ichi chuqur va yopiq, zihi yuqoriga ancha ko'tarilgan to'g'arak shaklidagi mis tog'ora, ba'zan ikkita qulog'i ham bo'ladi. Xamir qorish, guruch ivitishda, quyuq ovqat solishda, to'y, marosimlar va boshqalarda foydalaniladi. Metall qadah (kosa, piyola) degan ma'nolarda qo'llanadi. Bu ma'lumotlardan kelib chiqib, hozirda jom so'zi qo'llanmasa ham o'rnini bosa oladigan yangi so'zlar ya'ni tog'ora, kosa, piyola kabi leksemalar qo'llanadi. Demak, bu so'z arxaik so'zdir.

Jom-tog'ora, kosa, piyola.

Xurjun-yo'lga chiqish oldidan ot egari ustidan ikki tomonga tashlanadigan, har ikki tomonida xaltasi bor mato ma'nosini anglatadi. Hozirda xurjun so'zi qo'llanmayapti. Bu leksemani tarixiy so'zlarga olishimiz mumkin.

Xumcha-uncha katta bo'lmagan, kichik xum. Bu so'z ham tarixiy so'zdir. Chunki bu leksema o'tmishda qo'llangan. Hozir iste'moldan chiqib ketgan.

Qo'rg'on-qum- tuproqdan hosil qilingan sun'iy tepa. Qo'rg'on ko'pincha aylana, oval, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat tarhli, atrofi devor bilan o'ralib, ichini qum, tuproq, shag'al bilan to'ldirib sun'iy hosil qilingan. Qo'rg'onlar uzoq o'tmishda mudofaa maqsadlari uchun xizmat qilgan. O'zbekiston hududidagi Tepa qo'rg'on, Chim qo'rg'on, Qum qo'rg'on, Tuproq qo'rg'on, G'isht qo'rg'on kabi qishloq nomlari shundan;

2) o'rta asrlarda qalin va baland mudofaa devori bilan o'rab qurilgan, asosan, bir darvozali shahar qal'a. Tabiiy tepaliklarda, ba'zan baland supa ishlanib ustida bunyod etilgan;

3) baland devor bilan o'ralgan hovli, atrofi ko'pincha ekinzorlardan iborat bo'lgan; Qo'rg'on leksemasi ham istotizmdir. O'tmishda bu so'z keng foydalanilgan. Hozirda faqat ilmiy asarlarda uchrab turadi.

Peshtoq — madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy va boshqa binolarning old tomoni — asosiy kirish qismi. Peshtoq binoning hashamatli baland, bezakdor me'moriy bo'lagi bo'lib, odatda, bino devori sathidan bir oz bo'rttirib chiqariladi. Asosiy o'rinni markaziy ravoq, uning ikki yonidagi dahanasi va tepasidagi ikki



uchburchak qanos va kitoba tashkil etadi. Peshtoq leksemasi ham o'tmishda faol iste'molda bo'lib kelgan. Hozirda esa tarixiy so'z hisoblanadi.²

Karvonsaroy — karvonlar to'xtab, tunab o'tadigan rabot, saroy. Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, shaharlari savdo yo'lida barpo etilgan. Karvonsaroilar, odatda, o'rtada katta hovli, atrofi bir-ikki qavatli hujralar bilan o'ralgan, minorali qal'aband istehkom shaklida bo'lib, savdo manzillarida va shahardagi bozorlar (tim va toqlar) qatoriga qurilgan. IX—XVIII asrlarda shaharlarning o'sishi va karvon savdosining kuchayishi natijasida karvonsaroilar ko'plab bunyod etilgan. Arab sayyohlari Istahriy va ibn Xavqallarning ma'lumotiga ko'ra, X asrda savdo markazi hisoblangan Movarounnahrda 10 mingdan ortiq karvonsaroilar bo'lgan (Raboti Malik, Doya xotin karvonsaroyi, Ollaqulixon karvonsaroyi). Temir yo'l va boshqa zamonaviy transport rivojlanishi natijasida karvonsaroilar o'z ahamiyatini yo'qotgan.[1]

Karvonsaroy leksemasi ham tarixiy so'zga kiradi. Chunki hozirda iste'molda emas.

Hujra — an'anaviy o'zbek me'morligidagi eng kichik xona; bir yoki bir necha kishiga mo'ljallangan yotoqxona. Jamoat binolarida (madrassa, masjid, maqbara va boshqa ziyoratgohlar), turar joylarning tashqari qismida qurilgan. Yirik inshootlarda (madrassa va boshqalar) bosh peshtoq — yon tomonlaridan boshlab hovlini o'rab quriladigan mujassamot keng tarqalgan; bunday inshootlardagi hujralar ko'pincha bir xil hajmda bo'ladi; ba'zan burchak hujralar bir muncha kattaroq bo'lib, ulardan darsxona sifatida foydalanilgan.

Hujra termini madrasa ma'nosida ham qo'llanilgan. Bu so'z madrasalarning ikkinchi nomi bo'lgan. Hujjatlarda madrasa so'zi bilan qariyb teng ma'noda ishlatilgan[1]. So'zning ma'no-mazmunidan anglashimiz mumkinki, bu leksema ham hozirda iste'molda emas. Demak istorizmlarga kiradi.

Bu so'zlarni asarda qay holatda qo'llanganligini va qanday ma'no anglatganligini ko'rib chiqamiz:

² Odil Yoqubovning "Oq qushlar oppoq qushlar" Toshkent "sharq" 2012. 4-6-21-128-betlar.

1. AslidaAslida u Shorahim shovvozning **frontchi** do'sti,hozir "Dashstroy"degan ulkan tashkilotni "Tur"deb turg'izib,"yot"deb yotqizib yurganlardan biri,Muzaffar Farmonovning arzandasi.("Oq qushlar oppoq qushlar",6b).

2. Oysuluv uzun oq shoyi ko'ylak,uning ustida xipchabel qora **duxoba kamzul** kiygan,boshida oq shoyi ro'mol,oyog'ida bir mahallar "amirkon"deb atalguvchi yumshoq mahsi bilan bejiringina yaltiroq kavush....("Oq qushlar oppoq qushlar",15b).

3. Haqiqat bo'lsa ota-bola Farmonovlar xonavayron bo'lganda sen pismiqlar...kim burgaga tuzoq qo'ygan senday qallobni ularga qo'shib hibslar qilish o'rniga **savxozga** direktor qildi?...("Oq qushlar oppoq qushlar",411-412-betlar)

4. Oysuluvning o'limidan keyin,uy ham nazarida shamsiz **xujraday** qorong'i,uni chiroq tugul hatto oftob ham yorita olmas edi....("Oq qushlar oppoq qushlar",413b). Odil Yoqubovning "Oq qushlar oppoq qushlar" asarini o'rganishimiz natijasida shunga amin bo'ldikki, asarda ko'plab istorizmlar va arxaik so'zlarni uchratishimiz mumkin. Bu leksemalarning ko'pligidan ko'rinib turibdiki,asar yozilganiga ancha vaqt bo'lgan.Tilimizda istorizm va arxaik so'zlarning ahamiyati katta.Chunki bu so'zlar tilimizning tarixini,o'tmishini ochib beradigan,ko'zgu desak mubolag'a bo'lmaydi.Tarixiy va eskirgan so'zlarimiz bo'lmasa so'zlarning qadimiyligini,ma'no nozikligini anglamagan bo'lardik.O'tmish va kelajakdagi so'zlar paralell bo'yoqlarda to'qnashmagan bo'lardi.Bu leksemalarni o'rganishimiz ,tahlil qilishimiz tilimizning qadimiyligini,ma'no-mazmunga boy ekanligini bilishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.M.T.Irsiqulov,"Tilshunoslikka kirish"Toshkent."Yangi asr avlodi"2009.
- 2.Odil Yoqubovning"Oq qushlar oppoq qushlar "Toshkent "sharq" 2012. 21-128 411-412- 413 - 21-128-betlar.
- 3.study.com.academy
- 4.Words.online.ru
- 5.Rahmatullayev Sh.O'zbek tilining imlo lug'ati-Toshkent.2011.
- 6.O'zbek tilining izohli lug'ati V jildi.1-5-jildlar-T."O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"Davlat ilmiy nashriyoti"2006-2008.

